

## Targ`ibot ishlari davom etadi...

2021-yil 10-iyun kuni Toshkent viloyati O`rtachirchiq tumani xalq talimi bo`limiga qarashli 68-umumtalim maktabida bo`lib o`tgan “TALABALIKKA BIR QADAM” shiori ostida o`tgan tadbirda institutimiz jamoasi nomidan Iqtisodiyot kafedrasini dotsenti U.S.Sangirova hamda Institut Yoshlar bilan ishlash, ma`naviyat va ma`rifat bo`limi hodimi M.B.Baratovlar ishtirok etib bitiruvchi yoshlarga institutimiz haqidagi dastlabki ma'lumotlar, institutimizda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar bilan o'rtoqlashdilar. Tadbir so'ngida yoshlar ustozlardan o`zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar.



Shuningdek tadbirda qatnashgan ota-onalar ham o`zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar. Tadbirda ishtirok etgan bitiruvchi o`quvchilarning aksariyati Qabul jarayonlari boshlangach albatta Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga xujjat topshirishlarini aytdilar va birgalikda esdalik uchun suratga tushdilar.



**TIQXMMI matbuot xizmati**